



## 2018 yil yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



### RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2338,4 mlrd.so'mni**, o'sish **7,9 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **110,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **35,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **47,5 %**

2018 yilning yanvar-iyul oylariida viloyat korxonalari tomonidan 2338,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoati korxonalarining ulushiga to'g'ri keladi (59,2 foiz). Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash sanoati xam munosib xissa qo'shdi (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 37,5 foiz).

### 2018 yil yanvar- iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

2017 yil



2018 yil



- Tog` kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elekt gaz bug` bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash
- Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizima chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



## **Qayta ishlash sanoat**

Qayta ishlash sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1384,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 59,2 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga oshganligi kuzatildi.

## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 876,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 37,5 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati 7,9 % ga oshganligi kuzatildi.



Shuningdek 2017 yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda: teri maxsulotlar ishlab chiqarish 28,3 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 61,5 % ga hamda tog` kon sanoati 54,6 % ga oshganligi kuzatildi.


***Yanvar- iyul oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar- iyun iga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	5,4	6,4	118,5
Paxta tolasi, ming tonna	29,5	27,1	91,9
Aroq – mig litr 100 % spirt	645,4	580,5	89,9
Elektr energiyasi, mlrd kvt/s	8,6	9,2	107,0
Paxta urug'l, ming tonna	47,5	43,0	90,5
Kalava ip, tonna	2924,7	2633,4	90,0
Sellyuloza, ming kg 90%	1204,5	368,1	30,6
Un, ming tonna	22,0	20,1	91,4
Kunjara, ming tonna	24,7	29,5	119,4

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 837,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar- iyul oyiga nisbatan 10,3 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 35,8 % ni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar- iyul oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



2017 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 48,5 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oyida 50,3 % ga oshishi kuzatilmoxda.


**Yanvar- iyul oyalarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



## *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 835,8 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,7 % ulushini), Sirdaryo tumani 454,1 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,4 % ulushini), Guliston shahri 353,2 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,1 % ulushini), Boyovut 167,1 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 7,1 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

*2018 yilning yanvar- iyul oyida hududlarning  
sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati*




Shu bilan birga eng kam ulush Sardoba tumani 66,1 mlrd so`m (2,8 %), Xovos tumani 61,3 mlrd so`m (2,6 %) va Guliston tumani 46,1 mlrd so`m (2,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

## **2018 yilning yanvar- iyul oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2855,5 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 45176,1 ming so'm, Guliston shahrida 3990,9 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

## **2018 yilning yanvar- iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,**



Tuman va shahrlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Guliston shahrida 125,0%, Yangier shahrida 122,5 % hamda Xovos tumanida 112,7%. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 75,6%, Boyovut tumanida 88,7% ni tashkil etgan.

## *Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.*

2018 yil yanvar-iyul oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1110,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 47,5 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 109,5 foizni tashkil qilgan.



### **2018 yil yanvar- iyulida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati**

